



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI JAMOAT
XAVFSIZLIGI DEPARTAMENTI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**



**“Yo'l harakati xavfsizligi tizimi
takomillashtirilishi munosabati bilan
O'zbekiston Respublikasining Jinoyat,
Jinoyat-protsessual kodekslariga
hamda O'zbekiston Respublikasining
Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi
kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar
kiritish haqida”gi**

**O'RQ-1033-son Qonunini o'rganish
bo'yicha qo'llanma**





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI
ISHLAR VAZIRLIGI JAMOAT XAVFSIZLIGI
DEPARTAMENTI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

**“Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi
munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat,
Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda
O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik
to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar
kiritish haqida”gi**

**O‘RQ-1033-son Qonunini o‘rganish
bo‘yicha qo‘llanma**



“Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.


Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 22-yanvarda qabul qilingan.


Senat tomonidan 2025-yil 24-yanvarda ma‘qullangan.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 20-fevralda imzolangan va kuchga kirgan.



Mazkur Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga 6 ta yangi modda kiritilib, 29 ta moddasi o'zgartirildi, jumladan:

 qo'shimcha jazo chorasi sifatida yo'l harakati qoidabuzarliklarini **jarima ballari asosida hisoblash (341-modda)** tartibi kiritildi;

 haydovchiga **1 yil davomida 12 dan ortiq ball hisoblansa, transport vositasini boshqarish huquqidan sud tartibida 6 oydan kam bo'lmagan muddatga mahrum qilish** jazosi belgilandi,

 bunda **12 ta modda bo'yicha** (125-moddasi uchinchi va beshinchi qismlarida, 126-moddasi, 127-moddasi birinchi qismida, 128³-moddalarida, 128⁴-moddasi ikkinchi qismida, 128⁵, 128⁶, 128⁸, 128⁹, 129, 130-moddalarida, 137-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etilganligi uchun) **jarima ballar** hisoblanadi va **eng yuqori balli 2 ball etib** belgilandi.

Qonun talablariga ko'ra ushbu modda bo'yicha **Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi** ishlab chiqildi va ball tizimini hisoblash mexanizmi belgilab qo'yildi.

Mazkur **qaror qabul qilingandan keyin ball tizimini hisoblab borish** amaliyotga joriy qilinadi:

 **gaz yoqilg'isida harakatlanadigan** transport vositalaridan foydalanishda **xavfsizlik qoidalarini buzganlik** uchun **(125³-modda)**;

 fuqarolarga BHMning **5 baravari**, mansabdor shaxslarga BHMning **10 baravari miqdorida jarima** belgilandi.



Oldin bunday norma yo'q edi, bugundan boshlab siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida yoki dizel va gazsimon yoqilg'i aralashmasida ishlaydigan transport vositalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini buzgan haydovchilarga nisbatan chora ko'rish mumkin.



odam tashish qoidasini buzganlik uchun (**128⁸-modda**);



*birinchi qismida BHMning **2 baravari**, ikkinchi qismida BHMning **5 baravari miqdorida jarima** belgilandi.*

Oldin odam tashish qoidasini buzganlik uchun 128-moddasi bilan umumiy norma sifatida chora ko'rilar edi, ya'ni BHMning 0,5 baravari miqdorida jarima to'lanar edi.

Endilikda Odam tashish qoidalarini buzganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida jarima solish belgilandi.

Shuningdek, ushbu moddaning 2-qismi bilan Avtobus va mikroavtobuslarda ichki ishlar organlarining hamrohligisiz odam tashish qoidalari buzilsa, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solish belgilandi.



quvib o'tish qoidalarini buzganlik uchun (**128⁹-modda**);



*BHMning **3 baravari miqdorida jarima** belgilandi.*


Huddi shuningdek, transport vositalarini quvib o'tish qoidalarini buzganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solish belgilandi.


 **“Yo'l bezoriligi”** uchun javobgarlik (**128¹⁰-modda**);

*birinchi qismida **1 yildan 2 yilgacha** transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilib, BHMning **25 baravari miqdorida** jarima;*


* **ikkinchi qismida BHMning **50 baravari miqdorida jarima** yoki **o'n besh sutka muddatga** ma'muriy qamoq jazosi belgilandi.***

Yo'l bezoriligi, ya'ni transport vositalari haydovchilarining boshqa transport vositalarining harakatiga qasddan to'sqinlik qilishi, harakatlanish burchagini va (yoki) tezligini saqlagan holda transport vositasini sababsiz sirpantirishi (drift), o'z yo'nalishida harakatlanish bo'lagini sababsiz keskin ravishda uch va undan ortiq marta uzluksiz o'zgartirishi (bundan maxsus ajratilgan joylarda sodir etish mustasno) yoki yo'l harakati ishtirokchilarining xavfsiz harakatlanishiga tahdid soluvchi yoxud transport vositasida yo'l harakatining boshqa ishtirokchilariga nisbatan hurmatsizlikda ifodalangan boshqa xatti-harakatlarni namoyishkorona sodir etganlik uchun ham jazo choralari belgilandi.

 **Huquqni muhofaza qiluvchi organlar** xodimlarining foto va (yoki) videotasvirini ularning **obro'sizlantirilishiga olib keladigan tarzda buzib tarqatganlik** uchun (**195²-modda**);




 **BHMning 20 baravaridan 50 baravarigacha miqdorida jarima yoki o'n sutka muddatga ma'muriy qamoq jazosi belgilandi.**

 Shuningdek, **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 17¹, 28, 32, 112, 123, 125, 125¹, 127, 128, 128³, 128⁴, 128⁵, 129, 130, 131, 135, 135¹, 136, 137, 139, 140, 147, 194, 245, 248, 256, 276, 282, 291-moddalariga** tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

*Bunda moddalarning sanksiyalari **maqbullashtirildi va ayrimlari kuchaytirildi**, shuningdek, "**Jarima ball**" tizimini joriy etilishi munosabati bilan moddalarga tahririy o'zgartirishlar kiritildi.*

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksi 5 ta yangi modda bilan to'ldirildi, 3 ta moddasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

 **Davlat raqam belgilarini yoxud identifikatsiya raqamlarini qonunga xilof ravishda tayyorlaganlik, foydalanganlik va qalbakilashtirganlik uchun (227¹-modda);**

BHMning 50 baravaridan 150 baravarigacha jarima yoki 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan cheklash yoki mahrum etish (modda uch qismdan iborat) belgilandi;


Ya'ni, Avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilarini yoki identifikatsiya (kuzov, shassi (rama), dvigatel) raqamlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash, o'tkazish yoki ulardan foydalanish, shuningdek, ularni qalbakilashtirganlik uchun jazo belgilandi.

 haydovchilarni (qayta) tayyorlash, imtixon o'tkazish va haydovchilik guvohnomasini berish tartibini buzganlik uchun (228²-modda);

BHMning **50 baravaridan 300 baravarigacha** miqdorda jarima yoki **5 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish** yoki **360 soatgacha majburiy jamoat ishlari** yoxud **3 yilgacha axloq tuzatish ishlari** yoxud **2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash** yoxud **5 yilgacha mahrum qilish** (modda **uch qismdan** iborat) belgilandi.





Mas'ul shaxs tomonidan tegishli toifadagi avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini yoxud traktorchimashinistlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha o'qishni tugatganligi haqidagi guvohnomani berishda ta'lim oluvchining o'quv dasturini o'zlashtirganligi yoki yakuniy imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tganligi to'g'risidagi soxta ma'lumotlarni o'quv jurnallariga, yo'l varaqalariga yoki imtihon komissiyasi bayonnomasiga kiritish yoxud ushbu soxta ma'lumotlarga asoslanib guvohnoma berganlik uchun jazo belgilandi.




 ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ham **transport vositasini mastlik holatida boshqarganlik** uchun **(261¹-modda)**;

 **3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum etilib, 2 yildan 3 yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoki 2 yildan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish (modda ikki qismdan iborat) belgilandi**

Haydovchilarning transport vositalarini mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida boshqarishi, shunday qilmish yoxud mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida ekanligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlaganligi uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etgan uchun jazo belgilandi.




 transport vositasini **boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxsning transport vositasini boshqarganligi** uchun (**261²-modda**);


 BHMning **50 baravaridan 100 baravarigacha** miqdorda jarima yoki **2 yilgacha axloq tuzatish ishlari** yoxud **2 yildan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum** qilish belgilandi.



 **gaz yoqilg'isida ishlaydigan transport vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini buzganlik uchun (262¹-modda);**

Transport vositalariga gaz balloni uskunalarini o'rnatishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul shaxs tomonidan siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida yoki dizel va gazzimon yoqilg'i aralashmasida ishlaydigan transport vositalarining xavfsizlik qoidalarini buzish yoxud gaz balloni uskunasi o'rnatilgan transport vositalariga yoqilg'i quyish talablarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lganligi uchun jazo belgilandi.






 **3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum etilib, BHMning 50 baravaridan 100 baravarigacha jarima yoki 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish belgilandi.**

 **Jinoyat kodeksining 261, 266 va 269-moddalariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.**

 **Bunda ushbu moddalar *maqbullashtirildi va ayrimlarining sanksiyalari kuchaytirildi.***

 **Jinoyat-protsessual kodeksiga qilmishlarning tergovga tegishlilikini (345, 381²-modda) aniqlash-tiruvchi normalar kiritilmoqda.**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI
ISHLAR VAZIRLIGI JAMOAT XAVFSIZLIGI
DEPARTAMENTI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

Mas'ul muharrir: Polkovnik O.T. Axmedov
Tuzuvchilar: Polkovnik U.E. Rasulev
Podpolkovnik F.A. Saidmurodov
Podpolkovnik A.M. Abjalov
Sahifalovchi: B.N. Normurodov

**"YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI TIZIMI
TAKOMILLASHTIRILISHI MUNOSABATI BILAN
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT,
JINOYAT-PROTSESSUAL KODEKSLARIGA
HAMDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI
KODEKSIGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR
KIRITISH HAQIDA"GI**

**O'RQ-1033-son Qonunini o'rganish
bo'yicha qo'llanma**





<http://ipkmvd.uz>

100213. Toshkent shahri,
Bektemir tumani,
H. Boyqaro ko'chasi, 27^A uy.